

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARINING KASBIY PEDAGOGIK FAOLIYATINI ZAMONAVIY TA'LIM SHAROITIDA SHAKLLANTIRISH

Sabirov Aloviddin Abdurahmonovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

"Jismoniy madaniyat nazariyasi" kafedrasi o'qituvchisi

Jumanazarov Jasurbek Alisher o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

"Jismoniy madaniyat" ta'lif yo'nalishi

1-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola zamonaviy pedagogik ta'lif sharoitida bo'ljak mutaxassislarni tayyorlash, ularni bo'lg'usi ish faoliyatida zarur bo'ladigan kasbiy va ijodiy mahoratini oshirish, iqtidorli talabalarni saralab, ularni kelgusi ijod faoliyatini aniqlab olish hamda "maktab-laboratoriya" tajriba maydonlarida ularning kasbiy faoliyatlarini shakllantirishning foydali jihatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy kompetensiya, maktab-laboratoriya, pedagogik ta'lif konseptor, yo'naltiruvchi, yaratuvchan qobiliyatlar, iqtidorli talabalar, tajriba maydonchalari, o'zaro hamkorlik, ijtimoiy hamkorlik.

Kirish. Bugungi zamonaviy dunyo oliy ta'lif tizimi juda tez sur'atlarda jadal rivojlanmoqda. Oliy ta'lif muassasalarining soni kun sayin ortib borishi va oliy ta'limga qiziquvchi talabalar soniga hamohang ortib bormoqda. Oliy ta'lif muassasalarining son bilan bir qatorda raqobatbardosh bilimli kadrlarni tayyorlashda sifatli ta'limga alohida e'tibor berishi zarur bo'lmoqda.

Bugungi kundagi bitiruvchi talabalarning ishga joylashish masalasi sog'lom raqobat asnosida kasbiy-ijtimoiy kompetensiyalari va bilimlari asnosida yuzaga kelishi, bo'ljak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ularga kelgusi ish muhiti amaliyotini yaratish, kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish va ular bilan individual yondashishni hamda ularning mustaqil ta'lifini sifatli tashkil etish muhim masala hisoblanadi.

Hozirgi kunda shu kabi bazi muammolarni hal etish va ta'lifni isloh qilish va yangicha sayqal berish oliy ta'lifni rivojlantirish bo'yicha qabul qilinayotgan qarorlarda ham o'z aksini topmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konseptsiyasi" [1],

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

“Pedagogik ta’lim innovatsion” bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarining ilmiy-nazariy xulosalarini amalda joriy qilish, universitet ta’lim sifatinioshirish jarayoniga innovatsion texnologiyalarni tadbiq etish maqsadida “Individual yondashuv texnologiyalari” universitetning asosiy strategik rejasiga

Adabiyotlar taxlili va metodologiya:

Jismoniy tarbiya o‘qituvchisining kasbiy kompetentligi shakllanganligi o‘quvchilarни jismoniy jihatdan tarbiyalash soxasidagi innovatsion metodika va texnologiyalarni qo‘llay olish malakasi bilan belgilanadi. Kasbiy kompetentliksiz pedagogning kasbiy o‘sishi, o‘quvchilar salomatlik darajasining mustaxkamlanishi, ta’lim oluvchilarda jismoniy tarbiya mashg‘ulotlariga motivatsiyani rivojlantirish mumkin emasligi amalda o‘z isbotini topgan. Jismoniy tarbiya o‘qituvchisining pedagogik jarayondagi innovatsion metodika va texnologiyalarni o‘zlashtirganlik hamda uning kasbiy faoliyatda qo‘llash malakasiga egaligi masalasini o‘rganish natijalari bu ikki komponent bir-biri bilan bog‘liq, bir-birini taqazo qiladigan va yaxlit xodisalar ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu jarayonga kompleks yondashuv bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchisining kasbiy kompetentligi darajasini rivojlantirish va takomillashtirish imkonini beradi. Zamonaviy jamiyat talablari “Jismoniy tarbiya” fanini o‘qitishda zamonaviy innovatsion metodikalar va texnologiyalarni joriy qilish, mashg‘ulotlarni sifatli o‘tkazish, o‘qituvchi bolalarda jismoniy tarbiyaga nisbatan xavas uyg‘otish imkoniyatini qaror toptiradi. Bunday tizimni amaliyotida qo‘llagan o‘qituvchi ushbu jarayonda ta’lim oluvchilarning motivatsiyasini oshiradi, jismoniy rivojlanish, jismoniy tayyorgarlik hamda salomatlik darajasini oshirishdek strategic vazifani bajaradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi[1] farmonida jismoniy tarbiya va sport soxasida yagona davlat siyosatini yuritish, axolining turmush tarzini ta’minlash va jismoniy faolligini oshirishning samarali tizimini yaratish vazifalari belgilangan.

Mazkur farmonda o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini ta’minlash, bolalarni jismoniy rivojlangan va sog‘lom bo‘lib voyaga yetishi, shuningdek, yoshlarni sport va jismoniy tarbiyaga jalb qilishga aloxida e’tibor qaratilgan

Bu borada soxa bo‘lajak pedagog xodimlarni har tomonlama bilimli, kasbiy kompetensiyali qilib tayyorlash asosiy masala bo‘lib qoladi. N.L.Gololobova “bo‘lajak pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyalari quyigadi funksiyalarni bajarishi kerak” degan fikrni ilgari surgan:

- rivojlantiruvchi: asosiy kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish;

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

- adaptiv (moslashuvchan): bo'lajak pedagogikning kasbiy faoliyatdagi o'zgaruvchan sharoitlarga moslashishga tayyorlash;
- yo'naltiruvchi: kurs va kurslararo davrda mustaqil ta'limga yo'naltiruvchi;
- innovatsion: nazariy asoslarning yangilanishi va malakalarni takomillashtirish;
- kompensatorlik (o'rnini to'ldiruvchi): ta'limda o'zgarishlar yuzaga kelishi sababli kasbiy kompetentlikdagi kamchiliklarni to'ldirish.

Natija: Talabalarni bo'lajak kasb faoliyati kompetensiyaning sahkllantirish, ularni ilmiy faoliyatga jalgan etish. Talabalarning pedagogik sifatlarini shakllantirish. "Faol tashabbuskor murabbiy" va "maktab-laboratoriya" dasturlari bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kelgusi ish faoliyatiga samarali tayyorlash uchun model vazifasini o'tab beradi. Bugungi kunda Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika universiteti asosiy strategik yo'nalishi pedagogik ta'lim innovatsion klasteri bo'lib, "maktab-laboratoriya" uning yadrosi-amaliyotga tadbiq etish shakli xisoblanadi. "Maktab-laboratoriya" lar ilmiy-pedagogik innovatsion loyihalarni yaratish va tajriba-sinovdan o'tkazish bilan bog'liq muhim vazifalarni bajaradi.

Bu boradagi ishlarni tizimli va muayyan reja asosida olib borish maqsadida "jismoniy madaniyat" ta'lim yo'nalishi va Chirchiq shaxar xalq ta'limi bo'limining umumiy o'rta ta'lim maktablari o'rtasida hamkorlik shartnomalari hamda chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan. "Maktab-laboratoriya" innovatsion tajriba maydonchalarining maqsadi uzlusiz ta'lim jarayonida ta'lim turlari o'rtasidagi ilmiy, uslubiy va ta'lim vositalarini rivojlantirish, pedagogik ta'lim innovatsion amaliyotga tadbiq etish bilan bog'liq ilmiy-pedagogik loyihalarni tajriba sinovdan o'tkazishdan iborat. Bundan tashqari, maktabda yangi ta'lim standartlarining joriy etilishi endigina pedagogik faoliyatini boshlagan o'qituvchilarining kasbiy moslashishiga qo'shimcha qiyinchiliklar tug'diradi. Bu holatdan chiqish yo'li, "maktab-laboratoriya" doirasida yosh o'qituvchilarining kasbiy moslashuvini pedagogik-psixologik jihatdan qo'llab quvvatlaydi. Jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarini qo'llab-quvvatlash va ularga bitirgandan so'ng 3-5 yil davomida metodik yordam ko'rsatishdan iborat. Zamonaviy ta'lim jarayonida yosh o'qituvchilarining o'z kasbiy faoliyatini modellashtira oladigan darajada DTS talablarini hisobga olgan holda kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini hamda kasbiy kompetensiyaning oshirishiga ko'maklashuvchi chora tadbirlarni o'z ichiga oladi. Ta'lim islohatlaridan oladigan darajada DTS talablarini hisobga olgan holda kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini hamda kasbiy kompetensiyaning oshirishiga ko'maklashuvchi chora tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

Muhokama: Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Jismoniy madaniyat” ta’lim yo‘nalishining “maktab-laboratoriya” innovatsion tajriba maydonchalari asosida o‘zaro hamkorlikning quyidagi modellarini amalga oshirmoqda

1. Ma’lumotlarni anglash ijtimoiy faoliyati. Ushbu model doirasida tashkiliy hizmatlar amalga oshirilmoqda: sport to‘garaklari, master-klasslar, ma’ruzalar, ilmiy-amaliy anjumanlar, konsultatsiyalar, ekskursiyalar.

2. Muammoli –taxliliy yoki munozarali faoliyat, unga tayyorgarlik ko‘rish, anketa va so‘rovnomalar, treninglar, maxorat darslari, muammoli seminarlar, davra suhbatlari, ilmiy-tadqiqot va loyiha ishlari o‘tkazilmoqda.

3. Ijtimoiy-rolli modeliga o‘rta maktab o‘quvchilarining kasbiy tayyorgarliga yo‘naltirilgan ijtimoiy tadbirlar (tanlovlari, olimpiadalar, konferansiyalar, loyiha faoliyati, yosh sportchi maktabi va boshqalar).

4. Sport faoliyati sinfdan tashqari ishlarning turli shakllariga qaratiladi. O‘zaro hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- o‘quv-uslubiy o‘zaro hamkorlik;

- ilmiy-uslubiy o‘zaro hamkorlik;

- o‘qituvchilarning kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish kurslarini tashkil etish.

Xulosa: Pedagogik ta’lim innovatsion klaster sharoitida “maktab-laboratoriya” tajriba maydonchalarini joriy etish orqali talabalarga qulay bo‘lgan ta’lim muhiti va ta’lim jarayonini tashkil etishga yordam beradi. Bo‘lajak kadrlarning tanlangan mutaxassisligi bo‘yicha qiziqishi va ishtiyoqini yanada oshirishga, olgan bilimlarini amaliyotda qo‘llashga va talim muhitida yangi bilimlarni o‘zlashtirishga, kasbiy kompetensiyalarini shakllanishiga yordam beradi.

Davlatimiz raxbari tomonidan sifatli ta’limga e’tibor berish yanada dolzarbliji, ta’limni shaxsga yo‘naltirish ishlari jadal rivojlanishiga sabab bo‘lmoqda.individual ta’lim yondashuvi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan bo‘lib, insonning qadrqimmati va kapitali rivojlanishiga hizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 29.04.2019 sanasidagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-5712-sonli qarori.

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

2. Zulxaydarov J.A. Ta'lim klasterlari: mazmun-mohiyati, soxada mavjud muammolar va ularni xal etish yo'llari. O'zbekistonda oliy ta'lim. 2023-yil 4-son. 73-84 betlar.
3. T.S.Achilov, SH.M.Jurayev. Pedagogik ta'lim innovatsion klaster yondashuvida maktab-laboratoriya tajribasining tarmoqlararo o'zaro hamkorligi asos sifatida // Academic research in educational sciences // VOLUME 1, ISSUE 3, 2020.
4. Abdullabdullaev, R. "BASES OF SCIENTIFIC AND TECHNOLOGICAL SUPPORT OF THE PROCESS OF FORMATION OF SPECIAL TOURIST KNOWLEDGE, ABILITIES AND SKILLS." Science and innovation 2.B3 (2023): 122-123.
5. Жураев, Вохиджон Мухаммединич. "СПОРЧИЛАРНИНГ ДАЪВОГАРЛИК ДАРАЖАСИ ВА ИРОДАВИЙ СИФАТЛАРИНИНГ ПСИХОЛГИК ХУСУСИЯТЛАРИ." Academic research in educational sciences 4.TMA Conference (2023): 894-900.
6. Abdullayev, Rustam. "The Process Of Quality Education-As A Mechanical Combination Of Teaching And Learning Processes." Procedia of Social Sciences and Humanities 4 (2022): 57-59.
7. Abdullayev, Rustam. "INDICATORS OF CRITERIA FOR EVALUATING THE EFFECTIVENESS OF FORENSIC SUPPORT FOR THE INSPECTION OF THE SCENE." ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В СОВРЕМЕННОЙ НАУКЕ. 2022.
8. Араббоев, К. Т., and Е. Я. Михайлова. "ОБОСНОВАНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ ФАКУЛЬТЕТА ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ ПОСРЕДСТВОМ ТЕХНОЛОГИЙ ИНТЕГРИРОВАННОГО МОДУЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ." Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi 7 (2023): 753-757.
9. Tahirjonovich, Arabboev Kahramon. "Matters of physical education in kaikous" "QABUSNAMA". Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.1 (2023): 223-226.
10. Rashitovna, Muratova Gulnara, and Arabboev Qahramon Tokhirzhonovich. "Features Of Physical Education Of Preschoolers." International Journal of Early Childhood Special Education 15.2 (2023).
11. Араббоев, Қ. Т. "Жисмоний тарбия дарсларида талабалар ўқув-спорт фаоллигини оширишда шахсга йўналтирилган таълим турларининг ўрни." Фан-спортга Учредители: Узбекский государственный университет физической культуры и спорта 6: 68-71.

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

12. Arabboyev, Qahramon. "Madaniy me'roslarimizda jismoniy tarbiya masalalari." Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi 6 (2023): 643-648.
13. Muratova, G. R., and Q. T. Arabboyev. "The role of sport in people's health." International Journal of Early Childhood Special Education 14 (2022).
14. Muratova, Gulnara Rashitovna. "PEDAGOGICAL TECHNOLOGY OF PHYSICAL EDUCATION FOR STUDENTS BASED ON THE POSSIBILITY OF AEROBICS." INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION". Vol. 3. No. 1. 2024.
15. Rashitovna, Muratova Gulnara, and Atadjanov Asadbek Baxtiyor o'g'li. "IMPLEMENTATION OF NEW TECHNOLOGIES IN THE AEROBICS PROGRAM FOR FEMALE STUDENTS OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 13.01 (2024): 38-41.
16. Муратова, Гулнара Рашитовна. "История древней и современной лёгкой атлетики." Ученый XXI века 20 (2016).
17. Muratova, G. R. "MODERN REQUIREMENTS FOR THE CREATION OF EDUCATIONAL PUBLICATIONS ON PHYSICAL EDUCATION FOR SECONDARY SCHOOLS." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.5 (2023): 1-4.
18. Муратова, Гулнара Рашитовна. "УКРЕПЛЕНИЕ СОСТОЯНИЕ ОРГАНИЗМА ЧЕРЕЗ ЗАНЯТИЯ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРОЙ И СПОРТОМ." INTERNATIONAL CONFERENCE: PROBLEMS AND SCIENTIFIC SOLUTIONS.. Vol. 2. No. 7. 2023.
19. Makhmudovich, Gafurov Abdushokir. "Medical problems of sports selection and sports orientation." ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603 11.12 (2022): 313-318.
20. Abdumalikovich, Umarov Abdusamat. "Analysis Of The Paradigm Of The Principles Of Overcoming The Problems Of Productivity Of Researchers Conducting Research In The Field Of Physical Culture." Journal of Positive School Psychology (2023): 529-534.
21. Умаров, Абдусамат, and Махлиёхон Хожимуродова. "OILA VA NIKOH SHAROITIDA AYOLLAR SPORTINING MUAMMOLARI." Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. 3.6 (2023): 313-317.

22. Urinbaeva, Umarova Zulkumor, and Umarov Abdusamat Abdumalikovich. "THE IMPORTANCE OF TRAVEL AND TOURISM IN FORMING A HEALTHY LIFESTYLE IN HIGH SCHOOL STUDENTS." Open Access Repository 9.10 (2023): 1-7.

23. Abdumalikovich, Umarov Abdusamat, and Umarova Zulkumor Urinboyevna. "THE USE OF INNOVATIVE PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN IMPROVING THE QUALITY OF PHYSICAL EDUCATION LESSONS." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.11 (2023): 421-424.

24. Umarov, Abdusamat, and Layloxon Maxmudova. "AHOLINING TURLI QATLAMLARINI DAM OLISH MASKANLARI VA SOG'LOMLASHTIRUVCHI TADBIRLARINING AHAMIYATI." Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi 7 (2023): 726-731.